

## **ARAB TILI FE'LLARNING I BOB SIFATDOSH SHAKLLARIGA XOS O'ZLASHMALARI**

**Odiljonova Sarvinoz Xosilbek qizi**

Andijon davlat universiteti talabasi

**Umarov Adahamjon Abdusalomovich**

Andijon davlat universiteti

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'zbek tilida qo'llanilgan arabcha o'zlashma so'zlarning I bob fe'lining vazn(qolip)lardan hosil qilingan shakllar tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *arabcha, vazn, qolip, fe'l, so'z, turkumlar, ot, sifat, sifatdosh, qurollar, nomlar.*

**Аннотация:** *В этой статье исследоватся заимствованные арабские слова в произведениях которые образованы от разных фигурных парод.*

**Ключевые слова:** *арабский, фигуры, пароды, глагол, части, речи, прилагательное, причастия, орудия, имена.*

**Annotation:** *Formed forms from varians rhythm models borraved Arabic words that were used plays are analyzed in the article.*

**Key words:** *Arabic, rhythm, model, verb, parts, of speech, noun, adjective, participle, means, names.*

O'zbek tili uzoq yillar mobaynida shakllangan til hisoblanadi. Shuningdek, uning lug'at tarkibi ham til bilan bir qatorda shakllanib kelgan. Hozirda mavjud so'zlarning barchasi ham sof o'zbekcha so'zlar emas. Bilamizki, tilning boyishida ikki manba asosiy o'rinni egallaydi. Bularning birinchisi, ichki manba, ya'ni tilda mavjud so'zlarning yangi ma'no kasb etishi bo'lsa, ikkinchisi tashqi manbadir. Bunda boshqa tillardan so'z kirib keladi va u tilga o'zlashib ketadi. Bizning tilimizda, asosan, fors-tojik, arab va rus tillaridan o'zlashgan so'zlar uchraydi. "O'zbek adabiy tili leksikasida aslida arabcha bo'lgan anchagina so'zlar uchraydi. Arabcha so'zlarning o'zbek tilida mavjud bo'lishi o'tmishda O'rta Osiyo territoriyasining arablar tomonidan istilo qilinishi va buning tarixiy-ijtimoiy oqibatlari bilan bog'liqdir"<sup>1</sup>. Demak, arabizmlar bizning tilimizga VIII asrda kirib kelgan. "Malumki, arab tilida barcha so'zlar o'zakdan boshlanadi; o'zaklar undosh tovushlardan (harflardan) iborat bo'ladi va mavhum ma'noni ifodalaydi. Masalan, ktb undoshlaridan iborat o'zak "yozish" bilan bog'liq mavhum ma'noni ifodalaydi"<sup>2</sup> Arab tilida shu kabi o'zaklardan barcha so'zlar va so'z turkumlari hosil qilinadi.

<sup>1</sup> Hojiyev A, Ahmedov A. "O'zbek tili leksikologiyasi". —Toshkent, O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1981. 111-bet.

<sup>2</sup> Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining etimologik lug'ati". —Toshkent, "Universitet" nashriyoti, 2003. 3-bet.

Shuningdek, bunday soʻzlar oʻzbek tiliga ham oʻzlashgan. Jumladan, sifatdosh shakllari ham koʻp miqdorda tilimizga kirib kelgan. Misol uchun: maxluq, maftun, mas'ul, maqbul, marhum, makruh, maktub, muallaq, muallif, muallim, mudarris, muazzin, munajjim, musavvir, muharrir, muloyim, mulozim, munosib, muqobil, musofir, muslim, muxlis, muxbir, mutafakkir, mutakabbir, mutaxassis, mutanosib, mustaqil kabi.

Sifatdosh yasovchi vaznlar quyidagicha: I bobda “*foil*” aniq, “*maf’ul*” majhul, II bobda “*mufa’il*” aniq, “*mufa’al*” majhul, III bobda “*mufo’il*” aniq, “*mufo’al*” majhul, IV bob “*muf’il*” aniq, “*muf’al*” majhul, V bob “*mutafa’yil*” aniq, “*mutafa’al*” majhul, VI bob “*mutafo’il*” aniq, “*mutafa’al*” majhul, VII bob “*munfa’il*” aniq, “*munfa’al*” majhul, VIII bob “*mufta’il*” aniq, “*mufta’al*” majhul, IX bob “*muf’ill*”, aniq, “*muf’all*” majhul, X bob “*mustaf’il*” aniq, “*mustaf’al*” majhul kabi vaznlar mavjud.

I bob fe’lining aniq daraja sifatdoshi “*foil*” shaklida yasaladi va oʻzbek tiliga “...gan”, “... yotgan”, “... kan”, “... qan” sifatdosh qoʻshimchalari bilan yoki “...chi” otlashgan qoʻshimchasi bilan tarjima qilinadi va hozirgi zamoni anglatadi.

*I bob foil* vaznida: voris – meros oluvchi, vosil - yetuvchi, sohib - suhbat qiluvchi, notiq-soʻzlovchi, oshiq - sevuvchi, zohid - ibodat qiluvchi kabi. Masalan: Ne boʻlgʻay koʻrub piri *koshif* meni. Misradagi “*koshif*”- ochuvchi, kashf qiluvchi maʼnolarini ifodalaydi.<sup>1</sup>

I bob fe’lining majhul daraja sifatdoshi esa “*maf’ul*” shaklida hosil qilinadi va fe’l ifodalagan ish-harakat ob’ekti boʻlgan predmetni yoki oʻsha ish-harakat natijasida hosil boʻlgan natijani (ish-harakat natijasini) bildiradi.

I bob *maf’ul* vaznida: malum - malolangan, ma’lum-bilingan, mamnun-minnatdor, mamnu’ - man etilgan, manzum-tuzilgan, manshur-yoyilgan, manqul-aytilgan kabi. Masalan:

**Mahbub** - arabcha habba (sevmoq, yaxshi koʻrmoq) fe’lining I bob sifatdoshi boʻlib, sevimli kishi; yor degan maʼnolarda ishlatiladi.

— *Sevganini solib esiga, Sen mahbublar yonida oʻtir.* A.Isroilov

**Mahbus** - bu soʻz habasa (hibsga olmoq, qamamoq) fe’lining I bob sifatdoshi boʻlib, qamoqqa olingan, ozodlikdan mahrum qilingan kishi maʼnosini anglatadi.

— *Oradan besh kunlar oʻtdi, mahbuslar zindon balosidan qutula olmaganlaridek, ularning qamalish sirlari ham hech kimga bilinmadi.*

A. Qodiriy, "Oʻtkan kunlar"

**Mahzun** - arabcha hazana (hafa boʻlmoq) fe’lidan olingan boʻlib, sifatdoshga oʻtganda hafa qilingan kishi degan maʼnoni bildiradi.

<sup>1</sup> Жўраев Ж.А. Умаров А.А. Алишер Навоий асарларида ўзлашмаларнинг қўлланилиши. Тилшуносликдаги замонавий йўналишлар: муаммо ва ечимлар. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. АнДДУ, 2020. 815 б.

— *Uning (Solih akaning) soch-soqollarida bironta qora qolmagan, dard ezgan, mahzun yuzi sarg'aygan.* X.Ahmar

**Mahkum** - bu soʻz arabcha hakama (hukm qilmoq) feʼlining I bob sifatdosh shakli boʻlib, hukm qilingan qoralangan degan maʼnoni bildiradi.

— *Qiz kechgacha boloxonadagi qorongʻu qaznoqda teshikdan moʻralab, dor yogʻochi ostida jallodning sirtmoq solishini kutgan mahkumday, taqdirga tan berib, otasini kutdi.* A. Qahhor, "Qoʻshchinor chiroqlari"

**Mavlud** - arabcha valada (tugʻilmoq) feʼlining sifatdoshi boʻlib, arab tilida tugʻilgan degan maʼnoni bildiradi. Oʻzbek tilida esa tugʻilgan kun va shu munosabat bilan beriladigan ziyofat va Muhammad paygʻambarning tugʻilgan kuni va uning sharafiga beriladigan ziyofat, paygʻambarning shunday ziyofatda oʻqiladigan tarjimayi holi degan maʼnolarda ishlatiladi.

—*Eshon imomlikdan tashqari mavlud oʻqir edi.* P. Tursun, "Oʻqituvchi"

**Mavjud** - arabcha vajada (topmoq) feʼlining sifatdoshi boʻlib topilgan degan maʼnoni bildiradi, oʻzbek tilida esa ixtiyorda yoki, umuman, voqelikda bor boʻlgan; bor degan maʼnoda ishlatiladi.

—*Mavjud boʻlgan imkoniyatlardan toʻla foydalanishga nimalar toʻsqinlik qilayotgani toʻgʻrisida gapirib ketdi.* A. Qahhor, "Qoʻshchinor chiroqlari"

**Mavsum** - arab tilida belgilangan degan maʼnoda ishlatiladi, oʻzbek tilida esa, maʼlum vast; sezon; bayr qm maʼnolarda qoʻllanadi.

—*Avgust oyi — oʻzbek diyorining yanada soʻlim bir mavsumi.* N. Safarov, "Olovli izlar"

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, oʻzbek tiliga arab tilidan koʻplab soʻzlar oʻzlashgan. Baʼzi tilshunoslarning fikricha, oʻzbek tilida arabcha oʻzlashmalar 50-60%ni tashkil qilar ekan. Ularning qoʻllanish doirasi ham keng, aksariyati oʻz maʼnosida oʻzlashmagan. Bu bizning soʻz boyligimiz oshishida katta ahamiyatga ega.

#### Adabiyotlar:

1. Hojiyev A, Ahmedov A. "Oʻzbek tili leksikologiyasi". —Toshkent, Oʻzbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1981. 111-bet.

2. Rahmatullayev Sh. "Oʻzbek tilining etimologik lugʻati". —Toshkent, "Universitet" nashriyoti, 2003. 3-bet.

3. Ibrohimov N., Yusupov M. "Arab tili grammatikasi" 1-jild. —Toshkent. "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 1997.